

ÓZBEK MAQOM TARIXI

*Andijon davlat pedagogika
instituti Ijtimoiy-gumanitar va san'at
fakulteti Musiqiy ta'lim yonalishi
201-guruh talabasi
Mirzaolimova Gulshanoy Mirzohidjon qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqomni rivojlantirishning bir qator afzalliklari, maqomning kelib chiqishi uning nazariyasi haqida sóz boradi.

Аннотация: В данной статье говорится о ряде преимуществ развития статуса, происхождении статуса и его теории.

Abstract: This article talks about a number of benefits of status development, the origin of status and its theory.

Kalit sózlar: Maqom, Shashmaqom, kasbiy musiqa, ilmiy risolalar, cholguchi, nóta yozuvlari.

Ключевые слова: Маком, Шашмаком, профессиональная музыка, научные трактаты, инструменталист, ноты.

Key words: Maqom, Shashmaqom, professional music, scientific treatises, instrumentalist, sheet music.

Maqom nima? Salobatli maqom turkumlarida qanday goya yoki ta'limotlar ifoda etilgan? Nima sababdan maqom san'ati kóp asrlardan buyon óz mohiyati, demakki, badiiy qiymatini yo'qotmasdan kelmoqda? Bu kabi savollar aslida tubdan serqirra va bir-biriga tutash madaniy-tarixiy-nazariy masalalar bilan uzviy bo'g'lanib ketganki, natijada ularga bir yóla yoki shu damdayoq bir jihatli javob berish mushkuldir. Shu bois qayd etilgan savollarimizga bu san'at salsalaridan javob axtarish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Zotan "har qanday musiqiy madaniyatni nafaqat moddiy-akustik fenomen tarzida, balki eng avvalo ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida tushunmoq zarur"

Ózbek maqomi tarixi ijodkorlari va ularning ijod namunalari yaxlit va sikllarga ajratilgan yonalishlarda nazariy jixatdan órganish. Maqomlarning shakllanishi va qonubiyatlarini (Shashmaqom: Xorazm maqomlari; Fargona-Toshkent maqom yóllari, yovvoyi maqom, surnay maqom yóllari haqidatasavvurga ega bólish kerak;

Ózbek an'anaviy ashula va cholg'u janrlari. Maqom turlarini, nota yozuvlarini bilishi kerak;

Sharq xalqlari musiqa san'atining óziga xos turdosh jihatlarini qiyosiy órganish; maqom an'alarining hozirgi zamon hayoti, ijodiy va qiyosiy órganish; maqom an'alarining hozirgi zamon hayoti, ijodiy va ijroviy amaliyoti; milliy musiqa

an'analarining mushtarak va óziga xos jihatlarini aniqlash kónikmalariga ega bólishi kerak.

"Ózbek maqom tarixi va nazariyasi" fani talabani shu fan bóyicha egallashi lozim bólган bilim, kónikma va malakalari minimum asosiy tushunchalari bóyicha metodik kórsatmalar tavsiya etilgan. Bakalavriat bosqichi uchun tuzilgan mazkur dastur-bakalavriat ta'lim yónalishlarining Vokal san'ati (An'anaviy xonandalik), Cholǵu ijrochiligi (An'anaviy cholǵu ijrochiligi) ixtisosliklari bóyicha tahsil oladigon talabalar uchun móljallangan. Dastur Davlat ta'lim Standartlariga binoan san'at sohasida bakalavr tayyorlash óquv rejaları asosida tuzilgan va undan ishchi óquvdasturlarini tuzishda foydalaniladi.

Maqom san'ati ózining kóp asrlik tarixiga ega bólib, avloddan avlodga "ustoz-shogirt an'anasi orqali meros bólib ótib kelayotgan kasbiy musiqaning namunasidir. Kasbiy musiqaning shakllanishida "sarot madaniyati" muxim órin tutgan bólib, xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodli musiqachilar xon saroylarida musiqachi bólib xizmat qilganlar. Shu davrdan boshlab kasbiy musiqa rivojlangan. Maqom san'ati bilan asosan kasbiy musiqachilar maxsus shuǵillanganlar. Maqomlar kasbiy musiqaning eng salmoqli va murakkab qismini tashkil etadi. Maqomlar shakl tuzilishi jihatidan juda salobatli ijod etgan kópgina mutafakkir olimlar Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Sayfiddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abduraxmon Jomiy va boshqalar maqomlarga doir ilmiy risolalar yozganlar. Shu tariqa maqom ijrochiligi, ijodkorligi va maqom nazariyasi fani rivojlanib keldi.

Ózbekistonda maqomlarning uch turi mavjud bólib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Olti maqom (Shashmaqom yoki Buxoro maqomlari)
2. Xorazm maqomlari
3. Fargóna-Toshkent maqom yóllari

Shashmaqom XVIII asr órtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlar tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan.

Shashmaqom oltita mukammal pardalar uyishmasini anglatadi. Maqom cholǵu kuy va aytim (ashula) turkumlari shu mukammal pardalarning ma'lum doira usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi.

Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bólimdan- cholǵu aytim (ashula) yóllaridan iborat bólib, ularni "ustoz shogirt" an'anaviy maktabida taxsil kórgan malakali kasbiy cholǵuchi va ashullachu- xofizlargina ijro etadilar.

Maqomning besh chiziqli nóta timizi asosida yozib olish ishlari XX asr davomida bir necha bor amalga oshirildi. Taniqli kompozitor va etnograf V.A.Uspenskiy (1879-1949) XX-asrning 20-yillarida Buxoroda maqomchi ustozlar-hofiz Ota Jalol Nosir va tanburchi Ota Ǵiyos Abduǵaniylar ijrosida salobatli Olti

maqom timizimi nta ikki bor 50-yillar va 60-70 yillar davomida nota yozuvlarida bosmadan chiqardi.

Olimlar orasida mavjud qarashlarga kra maqomlarning eng qadimiy namunalari paygʻambarlardan meros qolgan. Xususan, XVI asr ikkinchi yarmi-XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan vatandoshimiz, mashxur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning "Tuhfarus-surur" nomli risolasida xabar barishicha, avvaliga yetti maqom blgan. Bunda "Rost" maqomi- Odam alayhissalomdan, "Ushshoq" - Nuh alayhissalomdan, "Hijoz"-Ayub alayhissalomdan, "Husayniy" -Yoqub alayhissalomdan va "Rahoviy"- Muhammad sallalohu alayhi vassamlamdan meros qolganligi haqqidagi rivoyatlar bayon etiladi. Muallif bu axborotni yetkazishda Xja Abdulqodir ibn Maroĝiy, xja Safiuddin ibn Abdulmmin, Sulton Uvays, Jaloir kabi juda obrli ustozlar fikriga tayanganligini ham ma'lum qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Караматов Ф. Элснер Ю. Макам И маком, кн; Музыка народов Азии И Африки. Вип.
2. Matyoqubov O. R. Oĝzaki an'anadagi professional muzika asoslariga kirish.
3. Rajabov Ishoq. Maqomlar, Toshkent, (qlyozma) San'atshunoslik institute kitibxonasi.